

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**“MA’RIFATPARVAR ALLOMALARIMIZNING
ASARLARIDA TARBIYA MASALALARI”
MODULINING**

O‘QUV-USLUBIY MAJMUASI

Malaka oshirish kursi yo‘nalishi: Tarbiya

Tinglovchilar kontingenti: Akademik litseylar pedagog xodimlari

Buxoro – 2025

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil “27” dekabrda 485-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Tarbiya” yo‘nalishi bo‘yicha akademik litseylar pedagog xodimlarini malakasini oshirish kursining o‘quv reja va dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar: **Olimov Sh.Sh.** - Buxoro davlat universiteti pedagogika kafedrasi mudiri p.f.d., professor,
Samiyeva Sh.X. - Buxoro davlat universiteti pedagogika kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Taqrizchi: **Adizov B.R.** – Buxoro davlat universiteti professori, p.f.d.

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR.....	4
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI.....	9
III. NAZARIY MATERIALLAR.....	12
IV. AMALIY MATERIALLAR.....	35
V. GLOSSARIY.....	41
VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	47

I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Ishchi dastur O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4910-son Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyundagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 422-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi "Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi 296-son Qarorlarida belgilangan ustuvor yo'nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda akademik litseylar pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Ishchi dastur doirasida berilayotgan tayanch moduli mavzulari orqali akademik litseylarda faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarni tarbiya fanining jamiyat va shaxs rivojlanishidagi o'rni, jamiyatda bir maqsad sari qaratilgan dunyoqarashni shakllantirish, tarbiyada ijtimoiylashuv mexanizmlari, tarbiyada ijtimoiy-psixologik qonuniyatlar va obyektiv jarayonlar bilan birgalikda o'qituvchilarning ehtiyojlari asosida tanlab olingan modullari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari ta'minlanadi.

Modulning maqsadi va vazifalari

"Ma'rifatparvar allomalarimizning asarlarida tarbiya masalalari" modulining maqsadi o'qituvchilarning ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, tayyorlash, o'tkazish va tahlil qilishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish uslubiyoti bilan tanishtirish, shuningdek amaliyotda qo'llay olishlariga zamin yaratish bo'yicha kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish, ularning kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratini rivojlantirishdan iborat.

Modulning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

- o'qituvchilarda tarbiya jarayonining samaradorligi bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarini yangilash va rivojlantirish;

- o'qituvchilarning "Ma'rifatparvar allomalarimizning asarlarida tarbiya masalalari" modulini o'qitishning sifati va samaradorligini ta'minlash uchun zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish;

- "Ma'rifatparvar allomalarimizning asarlarida tarbiya masalalari" modulini o'qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish hamda ulardan o'quv jarayonida samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo'yiladigan talablar:

Kurs yakunida tinglovchilar quyidagi yo‘nalishlarda bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- Sharq mutafakkirlarining ta’lim-tarbiya, odob-axloq masalalaridagi qarashlar;
- islomda bolalar tarbiyasi, Sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyatidagi ta’lim-tarbiyaga oid yondashuvlar, g‘oyalar, qarashlar;
- yosh avlodning ongiga tarbiya usullari va vositalarini, hayotda ulardan to‘g‘ri foydalanish xususiyatlarining mazmunini **bilishi** lozim.

Tinglovchi:

- Markaziy Osiyo xalqlarining ta’lim-tarbiyaga oid boy merosini qo‘llashni;
- Sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyatidagi ta’lim va tarbiyaga oid yondashuvlar, g‘oyalar, qarashlardan foydalanishni;
- ma’naviy tarbiya konsepsiyasini amalda qo‘llash va foydalana olish **ko‘nikma va malakalariga** ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- yosh avlodda yuksak ma’naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish,
- boy madaniy merosimiz, tarixiy an‘analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash;
- mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarni amalda qo‘llash kompetensiyalariga ega bo‘lishi lozim.

O‘QUV MODULI BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Модул мавзулари	Жами	Умумий аудитория соати	Жумладан	
				Назарий	Амалий
1.	Sharq mutafakkirlarining ta’lim-tarbiya, odob-axloq masalalaridagi qarashlari	2	2	2	
2.	Markaziy Osiyo xalqlarining ta’lim-tarbiyaga oid boy merosini o‘rganish	2	2		2
3.	Zamonaviy tarbiya usullari va vositalarini qo‘llash samaradorligini oshirish mexanizmlari	2	2		2
	Jami:	6	6	2	4

1.2. Ma’rifatparvar allomalarimizning asarlarida tarbiya masalalari.

Sharq mutafakkirlarining ta’lim-tarbiya, odob-axloq masalalaridagi qarashlari. Sharq mutafakkirlarining ta’lim-tarbiya, odob-axloq masalalaridagi qarashlar. Islomda bolalar tarbiyasi, Sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyatidagi ta’lim-tarbiyaga oid yondashuvlar, g’oyalar, qarashlar. Yosh avlodning ongiga tarbiya usullari va vositalarini, hayotda ulardan to’g’ri foydalanish xususiyatlarining mazmuni

Markaziy Osiyo xalqlarining ta’lim-tarbiyaga oid boy merosini o’rganish. Markaziy Osiyo xalqlarining ta’lim-tarbiyaga oid boy merosini o’rganish. Sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyatidagi ta’lim va tarbiyaga oid yondashuvlar, g’oyalar, qarashlar.

Yosh avlodning ongiga tarbiya usullari va vositalari o’qitish samaradorligini oshirish. Yosh avlodda yuksak ma’naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish. Boy madaniy merosimiz, tarixiy an’alarimiz, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni amalda qo’llash.

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-Mavzu: Sharq mutafakkirlarining ta’lim-tarbiya, odob-axloq masalalaridagi qarashlari (2 soat nazariy).

REJA:

1. Sharq mutafakkirlarining ta’lim-tarbiya, odob-axloq masalalaridagi qarashlar.
2. Islomda bolalar tarbiyasi, Sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyatidagi ta’lim-tarbiyaga oid yondashuvlar, g’oyalar, qarashlar.
3. Yosh avlodning ongiga tarbiya usullari va vositalarini, hayotda ulardan to’g’ri foydalanish xususiyatlarining mazmuni

АМАЛИЙ МАШҒУЛОТЛАР МАЗМУНИ

1-Mavzu: Markaziy Osiyo xalqlarining ta’lim-tarbiyaga oid boy merosini o’rganish (2 soat amaliy).

REJA:

1. Markaziy Osiyo xalqlarining ta’lim-tarbiyaga oid boy merosini o’rganish.
2. Sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyatidagi ta’lim va tarbiyaga oid yondashuvlar, g’oyalar, qarashlar.

2-Mavzu: Zamonaviy tarbiya usullari va vositalarini qo'llash samaradorligini oshirish mexanizmlari (2 soat amaliy).

REJA:

1. Yosh avlodda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish.

2. Boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimiz, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni amalda qo'llash.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilar o'quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o'quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog'liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajaradilar.

Dasturning axborot-metodik ta'minoti

Modullarni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soha bo'yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimedia mahsulotlari va boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbaalardan foydalaniladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.

5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.

7. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-sentabr“Oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maksadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3290-sonli Qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabr “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4910-son Qarori.

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi “Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzduksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” 296-son Qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 422-son Qarori.

15. - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarori

III. Maxsus adabiyotlar

16. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. T.: “Hilol-nashr”. 2013 y.

17. A. Haydarov. Inson kamoloti va milliy-ma’naviy qadriyatlar. T.: Muharrir, 2008 y.

18. M. Xajiyeva. Xoja Ahmad Yassaviyning ma’naviy-tarbiyaviy qarashlari. Avtoreferat. T.: 2004 y.

19. M.Shoxadjayev. Burxoniddin Marg‘inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlari. Avtoreferat. T.: 2006 y.

20. M.Hamdanova. Ma’naviyat asoslari. T.: “Fan va texnologiya”. 2008 y.

21. S.Dolimov, U.Dolimov. Kaykovus unsurulmaoniy qobusnoma T.: “Istiqlol” 1994 y.

22. San'at – yoshlar nigohida. Magistrantlarning ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. T.: 2019 y.
23. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: O'qituvchi. 1992 y.
24. Y.Abdullayev. Eski maktabda xat-savodga o'rgatish. T.: 1960 y. 38-bet
25. Quronov M., Turayev SH va boshq. Milliy tarbiya va yoshlar dunyoqarashini shakllantirish. o'quv qo'llanma, "Muharrir" nashriyoti 2017y. 18b.t
26. Kodirov A ., Quronov M.va boshq.Fazilatli avlod: 7-18yosh gacha bo'lgan bolalarni tarbiyalash bo'yicha qo'llanma. "Muharrir" nashriyoti 2019 y.
27. Olimov Sh.SH.. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. (Monografiya). –T.: «Fan va texnologiya», 2015, 228 bet.

IV. Internet saytlar

28. <http://edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
29. <http://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
30. <http://lib.bimm.uz> –Bosh ilmiy-metodik markazi
31. <http://ziyonet.uz> – Ta'lim portali ZiyonET
32. <http://natlib.uz>–Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi.

II. FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI


“Nima uchun?” texnologiyasi.

Nima uchun sxemasi mavjud muammoni keltirib chiqargan sabablarini aniqlashga yordam beruvchi sxemadir. Sabab-oqibat qonuniga asosan muammoni

keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlamay turib muammoni hal etish qiyin.

Muammoni yechimini topish uchun uni keltirib chiqargan sabablarni aniqlash va yo‘qotish talab etiladi. Tinglovchilarda sabab-oqibat qonuniyati asosida fikr yuritishni tarbiyalash muhim. Ushbu sxema tinglovchilarda aynan ana shu xususiyatni rivojlantiradi. Tinglovchilarda tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

NIMA UCHUN?



muammoni aniqlash, uni hal etish,
tahlil qilish va rejalashtirish jarayonida
qo‘llash mumkin

“Nima uchun”? sxemasiga asosan tinglovchilar faoliyatini tashkil etish ketma-ketligi

1-bosqich

Tinglovchilarni “Nima uchun”? sxemasini tuzish qoidalari bilan tanishtirish



2-bosqich

Yakka tartibda (juftlikda) muammo shakllantiriladi. Nima uchun? so‘rog‘i bilan strelka chiziladi va savolga javob yoziladi. Qayta-qayta “nima uchun” degan savol berib boriladi. Muammoni keltirib chiqargan ildiz yashiringan sababi topilguncha davom ettiriladi.




3-bosqich

Tinglovchilar kichik guruhlariga birlashtiriladi, o‘z sxemalarini taqqoslashga va qo‘shimcha kiritishga imkon yaratiladi. Umumiy sxema jamlanadi.



4-bosqich

Natijalar taqdimoti uyushtiriladi. Faoliyat natijalari baholanadi.



“Nima uchun”? sxemasini tuzish qoidalari.

1. Qanday piktogrammadan foydalanishni o‘zingiz hal etasiz.
2. Mulohazalarning sxematik ko‘rinishi qanday bo‘lishini o‘zingiz hal etasiz.
3. Har bir strelka fikr yo‘nalishini ko‘rsatishi lozim.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-Mavzu: Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya, odob-axloq masalalaridagi qarashlari (2 soat nazariy).

REJA:

1. Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya, odob-axloq masalalaridagi qarashlar.
2. Islomda bolalar tarbiyasi, Sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyatidagi ta'lim-tarbiyaga oid yondashuvlar, g'oyalar, qarashlar.
3. Yosh avlodning ongiga tarbiya usullari va vositalarini, hayotda ulardan to'g'ri foydalanish xususiyatlarining mazmuni

Tayanch tushunchalar: tarbiya, tarbiyaviy ishlar, konsepsiya, tarbiya konsepsiyasi, jahon tarbiya konsepyasiyalari, milliy tarbiya konsepsiyasi.

O'zbek xalqi o'zining uzoq tarixi davomida yaratilgan ta'lim-tarbiyaga oid boy merosga ega. Bundan tashqari, avlodlarda insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, imon-e'tiqod, mehr-oqibat, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarni shakllantirishning o'ziga xos tajribasini to'plagan. Bizga ma'lumki, ma'naviy-axloqiy fazilatlar hech qachon o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, balki ularning kelib chiqishining haqiqiy manbai, ularni keltirib chiqargan sabablar va harakatga keltiradigan kuchlar mavjuddir. Zero, har qanday axloqiy qoidalar muayyan tarixiy zaruriyat natijasiga vujudga keladi va muayyan qonuniyat asosida rivojlanib boradi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari bu tajribaning shakllanishiga ulkan ta'sir ko'rsatgan. Tarbiya ham otalarning burchi va farzandlarning haqqidir. "Tarbiya" so'zi arabcha "robba" fe'lidan olingan bo'lib, o'stirdi, ziyoda qildi, rioyasiga oldi, rahbarlik qildi va isloh qildi ma'nolarini bildiradi. Musulmon ulamolar "tarbiya"ni bir necha xil ta'rif qilganlar. Jumladan, imom Bayzoviy quyidagicha ta'riflaydi: "Tarbiya bir narsani asta-sekin kamoliga etkazishdir".

Rog'ib Asfihoniy tarbiyani quyidagicha ta'rif qiladi: "Tarbiya bir narsani bir holdan ikkinchi holga o'tkaza borib, batamomlik nuqtasiga etkazishdir. Tarbiyaning ma'nolaridan biri, insonning diniy, fikriy va axloqiy quvvatlarini uyg'unlik hamda muvozanat ila o'stirishdir". Islomda bolalar tarbiyasi ota-onaning eng mas'uliyatli va uzoq davom etadigan burchlaridir. Boshqa burchlar ba'zi ishlarni qilish yoki mulkni sarflash bilan oxiriga etadi. Ammo tarbiya mas'uliyati bardavom bo'ladi. Zotan, ota-onaning farzand ne'matiga haqiqiy shukrlari ham aynan tarbiya mas'uliyatini sharaf bilan ado etish orqali yuzaga chiqadi. Odob masalasini insoniyat tarixida to'laqonli ravishda Islom boshlagan, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Islomda kishining hayotidagi har bir narsaning o'z odobi bor. Dunyodagi odobga bag'ishlangan asarlarning asosini va ko'piligini Islom halqlari vakillari tomonidan yozilgan asarlar tashkil qiladi, degan gapda zarracha mubolag'a yo'q.

Qadimda Sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan qarashlar hamda g'oyalar bugungi kunda ham muhim ta'lim-tarbiyaviy manba sifatida yoshlar ongi va qalbiga ma'naviy ozuqa berib kelmoqda. Uzoq va boy tarixga ega bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlari o'zining ta'limtarbiyaga oid boy merosini yaratib, takomillashtirib, yoshlarni insonparvarlik, ilmparvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, insonlarga va

tabiatga do'stlik, sahiylik kabi umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyalab kelishgan. Darhaqiqat, ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan bebaho madaniy meros milliy ma'naviyatimizning o'zagini tashkil etadi. Shu sababli undan bugun yoshlarimizning ta'lim va tarbiyasiga keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki, "Ajdodlarimizdan qolgan meros millatimizning nafaqat o'tmishi, shuningdek, istiqboli uchun ham kuch va fidoiylik manbai hisoblanadi".

Har bir xalqning ta'lim-tarbiyaga oid an'analari borki, ular pedagogik tafikkur taraqqiyotining asosi bo'lib xizmat qiladi va bola tarbiyasi haqidagi tasavvurlar va qarashlarni ifodalaydi. Yuqorida aytganimizdek, har bir ota ona o'z farzandlarini barkamol inson bo'lishini istaydi, o'zlari eta olmagan orzuumidlariga bolalarining etishligini o'ylaydi. Bolalarning har bir yutug'idan quvonishadi, mag'lubiyatidan tashvishga tushishadi. Farzandlarini baxtli ko'rish ular uchun eng baxtiyor damlar hisoblanadi. Buning uchun ularga bor kuch-quvvatini sarflashadi. O'tmishda buyuk allomalarimiz, yuksak darajadagi ma'naviyat, axloq-odob saboqlarini berganliklari, Vatan, xalq istiqboli, farovon turmush, halol mehnat, fan taraqqiyoti, inson mehnati, atrof-muhitga oqilona munosabat haqidagi o'z qarashlarini bayon qilib berganliklariga guvoh bo'lamiz. Mana shunday mangu allomalar jumlasiga Ahmad Yassaviyni kiritish mumkin. Xoja Ahmad Yassaviy o'zining ma'naviy-axloqiy qarashlari bilan bugungi kunda ham pedagogika faniga beqiyos qo'sha olganligi olib borilgan izlanishlardan ayon bo'lmoqda. "Xoja Ahmad Yassaviyning nuqtai nazariga ko'ra ayyorlik, gunohlarni yashirish o'zgalarga xiyonat hisoblanadi. Bu fikrlari bilan Xoja Ahmad Yassaviy rostgo'ylik, halollik, o'z-o'ziga talabchanlikni targ'ib qiladi. Zahmat chekkan odam sabrli, bardoshli, irodali bo'ladi, degan fikrni ilgari suradi. Hushyorlik shaxsni faol harakat qilishga undaydi.

Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlari o'quvchi shaxsini xushyorlikka, faol harakatlanishga, fitnalardan, fisqu fasod ishlardan o'zini olib qochishga undaydi". Shuning uchun ham ta'lim tarbiya jarayonida ulardan keng foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yana bir yiriq allomalardan biri Burxoniddiy Marg'inoniydir. Burxoniddiy Marg'inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlarida diyonat, imon, vijdon, burch, insoniylik xususidagi g'oyalari shaxsni har tomonlama va uyg'un rivojlantirishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qilgan. Shu jihatdan qaraganda

XXI asrda yashagan islom ta'limotining yirik nomoyondasi Burxoniddiy Marg'inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlarida erkinlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, imon-e'tiqod, halollik, axloqiy poklik, odillik, birodarlik, bilimlilik, mustaqil fikr hislatlari asosiy o'rinni egallaydi. Alloma Marg'inoniy o'zining axloqiyhuquqiy qarashlari bilan xalqimiz ma'naviyatini rivojlantirishga, musulmon dunyosi madaniyatining taraqqiyotiga hamda ijtimoiy pedagogik fikr rivojiga salmoqli hissa qo'shgan. Farzandga adab, hunar o'rgatmakni meros deb bilg'il. Agar sen xoh unga adab o'rgatg'il, xoh o'rgatmag'il turmush mashaqqatlarining o'zi unga o'rgatur. Undoqkim debdurlar, ota-onalar tarbiyalamasa, kecha va kunduz uni tarbiyalaydur. Kaykovus 44 bobdan iborat bo'lgan "Qobusnoma" asarida otalarning farzand tarbiyasidagi vazifa va burchlari, farzandning ota-onaga

munosabati, ularni qadrlash, insonlar orasidagi muomila odobi, ularning o'zaro axloqiy munosabatlari, haqorat, qo'pollik kabi yomon odatlardan saqlanish zaruriyati bilan bir qatorda bola tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratish, uning kelajagi uchun otanonaning mas'uliyati katta ekanligi kabi axloqiy masalalarga urg'u beriladi.

Sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyatidagi ta'lim va tarbiyaga oid yondashuvlar, g'oyalar, qarashlarni yosh avlodning ongiga singdirishda tarbiya usullari va vositalarini bilish, hayotda ulardan to'g'ri foydalanish – ta'lim jarayonida o'qituvchilarning pedagogik mahoratidagi muhim xususiyatlardan biri hisoblanadi. Keyingi yillarda odob-axloq mavzuiga bo'lgan qiziqish anchagina ortdi. Chunki milliy mustaqillikka erishganimizdan so'ng, tarixiy va madaniy merosimizni o'rganishga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi, milliy va diniy hamda ma'naviy qadriyatlarimizning mazmunidagi axloqiy g'oyalarni bilishga bo'lgan xalqimiz qiziqishlarining ortib borayotganligidir. Ta'lim-tarbiya tizimini insonparvarlik yo'nalishini tubdan o'zgartirish va yangi zamon talablari darajasiga ko'tarishning birinchi sharti – unga bir butun tizim sifatida yondoshish va shunga muvofiq, ish olib borishdan iboratdir. Yosh avlodda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir. Insonlar o'zligini chuqur anglashi, mustaqillikning qadrini tobora teran tushunishi, milliy tafakkurning kengayishi va takomillashuvi, tarixiy hurlik, mustaqillik ruhining uyg'onishini ta'minlash ma'naviyat sohasidagi siyosatimizning asosiy maqsadiga aylandi. Taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" deb yozgan edi. Mashoyixlarning aytishlaricha, "har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdur".

A.Avloniyning "Turkiy guliston yohud axloq" asari yangi usul maktablarining yuqori sinflarida ta'lim va axloqiy tarbiya berish uchun darslik sifatida o'qitilgan. A.Avloniyning asarini chuqur o'rganar ekanmiz, biz o'sha davrda maktablarda o'quvchilarga dars berishda umuminsoniy va diniy qadriyatlari, xalq og'zaki ijodi, Qur'on oyatlari, hadislar shuningdek, buyuk allomalarimizning hikmatli so'zlaridan imkon qadar keng foydalanganliklarini ko'ramiz. Masalan, "Yaxshi xulqlar" qatoriga kiruvchi "Sabr" mavzusida: "Sabr insonlar uchun buyuk bir fazilatdurki, janobi haq sobrlarni madh qilishdur. Shariati islomiyada janobi Haq tarafidan kelgan balo va qazoga sabr qilmoq farzi ayndur". Shul xususda so'ylanmish bir hadisi sharifning ma'nosi "ilm imonli kishilarning muhibi, hilm homiysi, aql dalili, yaxshi amal sarmoyasi, muloyimat volidi, afv axavoni, sabr hokimi vijdonidur," - deyilishi. Arablar "assabru miftohulfalah"- sabr shodlig'ning kalilidur deyurlar.

Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning milliy pedagogik va uslubiy asoslarini ilmiy-nazariy jihatdan ishlab chiqishga bugungi kundagi ehtiyoj va uni samarali hal etishning optimal yo'llarini topish asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Shunday ekan, oilada bola

tarbiyasi umumdavlat ahamiyatiga molik muammodir. Shu boisdan har qanday jamiyatni oilaga, oilada bola tarbiyasiga bo'lgan talabi ortib boradi. Ayni vaqtda - davlatning, ota-onaning bolalarni tarbiyalashdagi, farzandlarning ota-ona oldidagi mas'uliyatini oshirishdagi roli kuchayadi. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.Karimov aytganlaridek, "Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi". "Milliy madaniyatimiz, xalq ma'naviy boyligining ildizlariga e'tibor berish zarur. Bu xazina asrlar davomida misqolab to'plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o'tgan. Insonlarga og'ir damlarda madad bo'lgan. Bizning vazifamiz - shu xazinani ko'z qorachig'imizdek asrash va yanada boyitish".

Milliy taraqqiyotimiz uchun fundamental ahamiyatga ega ushbu fikr, ko'rsatma san'atga oid ilmiy tadqiqotlar uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar tarbiyasiga alohida to'xtalib: "Bolalarimizni birovlarining qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini echish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz". Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz. Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana shu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana, ulug' ajdodimiz nima deb yozganlar: "Xalqning aniq bir maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikdan olgan tarbiyalariga bog'liq" deya ta'kidlab o'tdi. Tarbiya o'z navbatida oiladan boshlanar ekan, biz o'z farzandlarimizni baxtisaodatini, kamolini, iqbolini, buyuk inson bo'lib etishganligini va hayot abadiyligi avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviy qo'rg'oni bo'lmish o'z oilamizning mustahkamligini ko'rishni istar ekanmiz, demak oilada tarbiyalanuvchilarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalashda tarbiyaning barcha turlariga e'tiborni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-bobolarimizdan qolgan boy ma'naviy merosning yosh avlodni har tomonlama yuksalishi tizimidagi o'rni va roli o'ziga xos xususiyatga va ko'rinishlarga ega. "Darhaqiqat, ajdodlar tomonidan " yaratilgan tarbiyaviy qadriyatlarni o'rganishda ta'lim tizimi imkoniyatlarga alohida e'tibor qaratishlozim. Sharq mutafakkirlarining asarlarini o'rganish, tahlil qilish, ularning ijodi va ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini pedagogik nuqtai nazardan tadqiq etish muhim amaliy ahamiyatga ega". Ular o'z asarlarida shaxs ma'naviyati, insonda odob-axloqning yuksak namunalarini tarkib toptirish, oila, nikoh, farzand tarbiyasi, halol mehnat bilan kun kechirish, atrof-muhitga nisbatan oqilona munosabatda bo'lishga oid qarashlarni bayon qilganlar.

Shunday qilib, inson va uni tarbiyalash masalalari Sharq mutafakkirlari va allomalari o'z asarlarida insonning bilim olishi, hunar egallashi, undagi yuksak ma'naviy-ahloqiy sifatlarni ulug'laydilar va shunday fazilatlarga ega bo'lishga barchani chorlaydilar. Ma'naviy yuksak, zamonaviy ilm-fanni egallagan, ajdodlarimizning boy ma'naviy merosga sohib chiqqan avlodni hech qanday tashqi kuch, g'oya yoki mafkura aslo o'z ta'siriga tushira olmaydi. Bunday avlodni voyaga etkazgan xalqning istiqboli porloq, kelajagi buyukdir.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya, odob-axloq masalalaridagi qarashlaridan misollar keltiring.
2. Islomda bolalar tarbiyasi, Sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyatidagi ta'lim-tarbiyaga oid yondashuvlar, g'oyalar, qarashlar nimalardan iborat?
3. Yosh avlodning ongiga tarbiya usullari va vositalaridan to'g'ri foydalanish xususiyatlari nimalardan iborat.
4. Uzluksiz ma'naviy tarbiya qachon qabul qilindi?
5. "Uzluksiz ma'naviy tarbiya- taraqqiyot kafolati" mavzusida esse yozing.

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-Mavzu: Markaziy Osiyo xalqlarining ta’lim-tarbiyaga oid boy merosini o‘rganish (2 soat amaliy).

REJA:

1. Markaziy Osiyo xalqlarining ta’lim-tarbiyaga oid boy merosini o‘rganish.
2. Sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyatidagi ta’lim va tarbiyaga oid yondashuvlar, g‘oyalar, qarashlar.

**1-TOPSHIRIQ. TARBIYA DARSLARI ORQALI O‘QUVCHI
YOSHLARGA O‘RNAK BO‘LA OLADIGAN ALLOMALARNING ILG‘OR
FIKR VA G‘OYALARINI IZOHLANG.**

1. Sharq mutafakkirlari ijodini o‘rganish yordamida yoshlarda milliy g‘oyani shakllantirishning maqbul tizimini ishlab chiqish va hayotga joriy yetish;

2. Hayotni anglashga qiziqish hissini o'zlashtirish, atrof-muhit va inson xarakterining murakkabligini tushunish qobiliyatini rivojlantirish;
3. Vatanga, xalqiga sadoqatli bo'lish tuyg'usini shakllantirish;
4. Sharq mutafakkirlarining didaktik asarlari yordamida o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulotlar uyushtirish;
5. O'quvchilarning ijobiy fazilatlarni tarbiyalashga qaratilgan tashviqotdarg'ibotchilik faoliyatini takomillashtirishga alohida ahamiyat berish;
6. Mutafakkirlarimiz ijodi yordamida o'quvchilarda yaxshi fazilatlarni shakllantirishning maqsad va vazifalari, mazmun, shakl va metodlar birligini ta'minlash hamda o'quvchi shaxsini kamol toptirish.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Markaziy Osiyo xalqlarining ta'lim-tarbiyaga oid boy merosini izohlab bering
2. Tarbiya qonuniyatlari deganda nima nazarda tutilgan? Fikringizni asoslang.
3. Sharq mutafakkirlarining didaktik asarlariga misollar keltiring.
4. O'quvchining tarbiyalanganligi qanday aniqlanadi?

2-Mavzu: Zamonaviy tarbiya usullari va vositalarini qo'llash samaradorligini oshirish mexanizmlari (2 soat amaliy).


REJA:

1. Yosh avlodda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish.
2. Boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimiz, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni amalda qo'llash.

1-topshiriq: Tushunchalar mazmunini izohlang

№	Tushuncha	Izoh
1	Inson	
2	Insoniylik	
3	Insoniylashtirish	
4	Insonparvarlik	

2-topshiriq: Tabaqalashtirish turlarini tasniflang



GLOSSARIY

Aqliy tarbiya - shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Axloq - ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulqatvor qoidalari, mezonlari yig'indisi.

Axloq (lotincha «moralis» — xulq-atvor ma'nosini bildiradi) — ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig'indisi.

Axloqiy ong - ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari, shuningdek, milliy istiqlol g'oyasining o'quvchilar ongida aks etishidir.

Axloqiy tarbiya - muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongiga singdirish ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari hamda axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi.

Bashoratlash - bo'lajak darsni tashkil etilishining turli varianlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma'qulini tanlab olish.

Boshqarish ma'lum bir obyektga tashkiliy, rejali, tizimli ta'sir ko'rsatish demakdir.

Dars - aniq maqsadni ko'zlab belgilangan vaqtda bir xil yoshdagi o'quvchi, yoshlar bilan o'qituvchi rahbarligida olib boriladigan mashg'ulotlardir. Dars - o'z oldiga qo'yilgan aniq maqsad va tug'al mazmundan iborat.

Darslik - muayyan fan bo'yicha ta'lim maqsadi, o'quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni beruvchi manba.

Darsning maqsadi o'qituvchining rejalashtirgan aniq bir mavzusini o'quvchilarga bildirishi va o'quvchilar o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirib ko'rish hamda yangi mavzu zamin yaratish.

Dastur - bajariladigan ish yoki biror faoliyat rejasi bo'lib, uning yordamida ta'limlovchilarga ta'lim-tarbiya berishda o'quv rejasi va dasturlarini o'g'ishmay amalga oshirilishida zamonaviy ta'limtexnologiyalaridan foydalanishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Diniy dunyoqarash mifologiya (afsona) negizida shakllangan va rivojlangan, voqelikning kelib chiqishi, rivojlanishi, istiqbolini xayoliy obrazlar, tasavvurlar va tushunchalarda aks ettiruvchi dunyoqarashdir.

Dogmatik o'qitish - bu jamoa asosida idrok etish faoliyatining ilk turi bo'lib, u o'rta asrlarda keng tarqalgan.

Dunyoqarash kishilarda olam haqida yaxlit umumlashtirilgan bilimlar, g'oyalar turkumini hosil qiladigan, ulami muayyan ijtimoiy guruhlar, sinflar, siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, davlatlar maqsadidan kelib chiqib baholaydigan va shunga qarab hayotdagi o'z o'mini, amaliy faoliyat yo'nalishlarini, maqsadlarini aniqlab olishga imkoniyat beradigan ko'p qirrali va

Faoliyat - shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko'rinishi.

Faollik - tirik materiyaning umumiy xususiyati, tevarak muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'lishida namoyon bo'ladi.

Fazilat - alohida shaxs, el, elat, xalq ulusga taalluqli bo'lgan ijobiy axloqiy sifat majmuyi.

Fikr - inson faoliyati uning o'zligini kuch - qudratini o'zagini tashkil qiluvchi ma'naviy-insoniy sifatdir.

Fuqarolik - huquqiy va axloqiy me'yorlarga ong'li rioya etish, ma'lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas'ullik bilan yondoshuv,

mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma'naviy etuklik asosida muayyan davlatga mansublik.

Fuqarolik tarbiyasi – fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat uchun fidoiy fuqarolar etib tarbiyalashdan iborat.

Guruh – odamlarning birgalikdagi faoliyat mazmuni yoki muloqotda bo'lish xarakteri kabi qator belgilarga asoslangan ijtimoiy jamoa.

Hisobga olish — bu o'qitishning muayyan bir davrida o'quvchilar va o'qituvchi faoliyatini umumlashtirib xulosalash.

Huquqiy faoliyat - huquqiy me'yorlar, qonunlar talablariga nisbatan ongli yondashish, ularga qat'iy va og'ishmay amal qilish, qonunlarni hurmat qilish, ularni shaxs erkini himoya qilish kafolati sifatida e'tirof etish, huquqiy munosabatlar jarayonidagi faol ishtirokni tashkil etishga yo'naltirilgan amaliy xatti-harakatlar majmui.

Huquqiy madaniyat – shaxs tomonidan huquqiy bilimlarning o'zlashtirilishi hamda huquqiy faoliyatni tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi.

Huquqiy ong - muayyan jamiyatning moddiy hayot tarzi bilan belgilanadigan tasavvur, idrok, tafakkur va e'tiqodlar tizimi bo'lib, ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida murakkab tuzilishga ega.

Huquqiy ta'lim- o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati to'g'risidagi tizimlangan bilimlarni berish, ularda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni shakllantirish jarayoni.

Huquqiy tarbiya - shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, unda ijobiy huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Idrok – aniq maqsadga yo'naltirilgan anglash jarayoni.

Idrok- borliqni odam ongiga aks ettirish.

Ijtimoiy reabilitatsiya (yunoncha “rehabilitas” — layoqati, qobiliyatini tiklash) tibbiy-pedagogik mazmunida anomal bolaning psixofiziologik imkoniyatlari darajasida ijtimoiy muhitda ishtirok etishi uchun sharoit yaratish, uni ijtimoiy hayoti va mehnatiga jalb etishni anglatadi.

Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar - o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni, e'tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'usi va irodasigata'sirko'rsatish usullari.

Ijtimoiylashuv – ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi asosida shaxsning hayot va ishlab chiqarish jarayoniga moslashuvi.

Illyustratsiya metodi - bilimlarni ogzaki bayon kila turib, rasmlar, chizmalar, jadvallar doskadagi yozuvlarga bolalar diqqatini tortish.

Individ (lotincha “individuum” bo‘linmas, yagona, alohida degan ma’nolarni anglatadi) – xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudot.

Individuallik - shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari.

Innovatsion ta’lim– bu bo‘lajak mutaxassislarni joylarda ishlashga tayyorlovchi jarayon bo‘lib, u avval olgan bilimlar asosida ta’limni takomillashtirish va samarali yangicha yondashuv qilishdan iborat.

Interaktiv -so‘zi ingliz tilidan olingan bo‘lib «Inter» - o‘zaro, «act» - harakat, ya’ni o‘qituvchi va o‘quvchi(talaba)ning o‘zaro hamkorlikdagi faoliyati.

Iqtisodiy ta’lim - o‘quvchilarga xo‘jalik yuritish tizimi (oila byudjetini shakllantirish, xo‘jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko‘paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to‘g‘ri tashkil etish va hokazolar) to‘g‘risidagi nazariy bilimlarni berishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.

Iqtisodiy tarbiya - o‘quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat (oila byudjetini shakllantirish, xo‘jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko‘paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to‘g‘ri tashkil etish va hokazolar)ni tashkil etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat pedagogik jarayon.

Ishlab chiqarish – kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgalik sifati va saviyasiga nisbatan qo‘yiladigan talablarni belgilaydigan asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnikaviy jihatdan ta’minlash jarayonining faol ishtirokchisi.

Izohlash — tarbiyalanuvchiga hissiy-og‘zaki ta’sir etish usuli. Izohlashning hikoya va tushuntirishdan farqlanadigan muhim belgisi muayyan guruh yoki alohida shaxsga yo‘naltirilganligidir.

Jamoa – maqsadlari jamiyat maqsadiga mos keladigan umumiy faoliyat bilan birlashgan odamlar guruhi.

Jamoa-insonparvarlik va javobgarlik ma’suliyatlariga bogliqligi bilan xarakterlanadigan munosabatlar xamda xamkorlikdagi ijtimoiy ijobiy faoliyatiga asoslangan, kishilarning tashkil etilgan umumiyliigi, jamoasidir.

Jamoaning negizi – umumiy fikr, maqsad va ishlab chiqarishga taalluqli qarorlarni shakllantiruvchi jamoa a’zolari.

Jazolash tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir.

Joriy nazorat o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning har bir o‘quv ishini muntazam nazorat qilishni hamda ularning o‘rganilgan mavzularni o‘zlashtirish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini tekshirishni o‘z ichiga oladi.

Korreksion (maxsus) pedagogika— rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o‘qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda

Korreksion pedagogikaning asosiy maqsadi — belgilangan (normal) va (mavjud kamchilik) faoliyat o‘rtasidagi nomuvofiqlikni yo‘qotish yoki kamaytirishdan iborat.

Korreksion-pedagogik faoliyat-yaxlit ta'limjarayonini qamrab oluvchi hamda murakkab psixofiziologik va ijtimoiy-pedagogik choratadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutuvchi pedagogik tizim.

Korreksiya (yunoncha "correctii" — tuzatish) pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini tuzatish (qisman yoki to'liq) sifatida tushunilishi ta'kidlab o'tiladi

Korreksiya (yunoncha tuzatish) bolaning psixik va jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatish, yo'qotish va pasaytirishni nazarda tutadi.

Ma'naviyat (arabcha "ma'naviyat" — ma'nolar majmui) - mohiyatiga ko'ra ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir o'tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvur, tushuncha va g'oyalar majmui.

Ma'rifat — shaxs ongiga ilmiy bilim, axloq qoidalari hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy **me'yorlarni** singdirish, ta'lim-tarbiyani takomillashtirish, milliy meros va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganish, ularni targ'ib etish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi.

Madaniyat - jamiyat va unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida to'plangan barcha ijobiy yutuqlar majmuasi.

Mafkura (arabcha <<mafkura>> - nuqtayi nazarlar va e'tiqodlar tizimi, majmuyi) - jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g'oyalar majmuyi.

Malaka — ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi;

Mazmun (ta'lim (bilim olish) mazmuni) – ta'lim jarayonida shaxs tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malaka, fikrlash hamda faoliyat usullari tizimi.

Mazmun (ta'lim (bilim olish) mazmuni) – ta'lim jarayonida shaxs tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malaka, fikrlash hamda faoliyat usullari tizimi.

Mehnat tarbiyasi - shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni; ijtimoiy arbiyaning tarkibiy qismi.

Metod- so'zining yunoncha tarjimai «tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li» kabi ma'nolarni anglatadi. Falsafa lug'atida ushbu tushuncha umumiy tarzda «maqsadga erishish usullari» deya sharhlangan.

Metodika (fan sifatida)– xususiy fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

Mifologik (yunoncha - mifos-naql, rivoyat, logos-tushuncha, ta'limot) **dunyoqarash**-ijtimoiy taraqqiyotning eng boshlang'ich davriga xos bo'lgan xalq og'zaki ijodi-naql va afsonalarda gavda- lantirilgan ijtimoiy ongning asosiy shaklidir.

Milliy ong - bevosita har bir millat yoki elatning uzoq tarixiy etnogenez davri, turmush tarzi, iqtisodiy ishlab chiqarish usuli, diniy e'tiqodlari, madaniyati, boshqa

xalqlarning o'zaro ta'siri tu- fayli shakllangan dunyoqarashi, iqtisodiy, siyosiy- ijtimoiy va mada- niy- ma'naviy sohalarida faollik darajasi.

Muammoli izlanish metodi - Muammoli izlanish metodi tipiga o'quvchilar tafakkuriga, binobarin, ularning ijodiy faoliyatiga yo'nalgan ta'lim metodlaridir. Bu metodlar asosida o'quv - tarbiya ishlari tashkil etilganda o'qituchi va o'quvchilarning o'zaro ta'siri, faolligi ko'zda tutiladi (muammoli hikoya, muammoli lektsiya)

Munozara (tarbiya metodi sifatida) - tarbiyalanuvchilarga hissiy-og'zaki ta'sir ko'rsatish asosida ular ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bahs-munozara usuli.

Mustaqil ishlash metodi. Mustakil ishlar ta'limning turli zvenolari, tsikllarida, darsning barcha etaplarida o'tkaziladigan, o'qituchining bevosita ishtirokisiz, ammo uning ko'rsatmalari, rahbarligida bajariladigan intellektual va amaliy topshiriklardir.

O'quv fani – ta'lim muassasalarida o'quvchilarning yosh, idrok etish imkoniyatlariga muvofiq ularga muayyan fan sohasi bo'yicha umumiy yoki mutaxassislik bilimlarini berish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni ta'mi

O'z-o'zini baholash mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish asosida o'z shaxsiga baho berishga yo'naltirilgan faoliyat usuli.

O'z-o'zini tahlil (nazorat) qilish o'z shaxsi, mavjud fazilatlari, hatti harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usuli. O'z -o'zini tahlil (nazorat) qilish uchun o'quvchi o'zining yurishturishi, intizomi, ijobiy fazilatlarining ortib borishi va aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

O'z-o'zini tarbiyalash metodlari o'quvchilarning o'zini o'zi idora qilishlari, turli o'quvchilar organlari faoliyatida faol ishtirok etishlarini ta'minlash, ularning ijtimoiy mavqelarini oshirish maqsadida qo'llaniluvchi usullardir. O'z-o'zini tarbiyalash o'quvchilarning o'zini o'zi idora qilish va o'quvchilarning turli organlari faoliyatida faol ishtirok etishni ta'minlash, ularning ijtimoiy mavqeini oshirishning ta'sirchan vositasidir.

O'z-o'zini qayta tarbiyalash – shaxsning o'zidagi salbiy odatlar, xarakteridagi zararli sifatlarni yo'qotish, ularni bartaraf etishga qaratilgan ichki faoliyati jarayoni.

O'z-o'zini tahlil (nazorat) qilish - o'z shaxsi, mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usuli.

O'z-o'zini tarbiyalash 1) shaxsga xos bo'lgan madaniyatning shakllanishi va rivojlanishiga qaratilgan izchil va ongli faoliyati; 2) shaxsning o'z jismoniy, ruhiy va axloqiy sifatlarini tinmay amalga oshirish.

Odob - har bir insonning o'zi bir inson yoki jamoa bilan bo'lgan muloqotida hamda yurish-turishida o'zini tuta bilishidir.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari – shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, obyektiv va sub'ektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullari.

Pedagogik talab turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida o'quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari.

Pedagogik tizim - tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'zaro tashkiliy hamkorlikda faoliyat ko'rsatuvchi barcha ko'rinishdagi maktabgacha tarbiya, o'rta umumiy ta'limmaktablari, o'rta maxsus o'quv yurtlari, oliy o'quv yurtlari, maktabdan tashqari tarbiya muassasalarining o'zaro uzviylikdagi tizimi.

Pedagogika (yunoncha «paidagogike» bo'lib, «paidagogos» - bola, etaklayman) – ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta'limberishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan.

Pedagogika o'zining obyektini – rivojlanayotgan, doimiy yuksalish sharoitidagi insonda anglaydi. Bu inson doimiy ravishda tabiat hamda jamiyat qonuniyatlari bo'ysunib, ular bilan uyg'unlikda faoliyat ko'rsatadi.

Raq'batlantirish tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'nglini ko'tarish va uni qo'llab-quvvatlash usulidir.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Shaxs - psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Shaxsni ijtimoiylashtirish - uni jamiyat tomonidan tan olingan xulq-atvor me'yorlari, bilim hamda qadriyatlar tizimini o'zlashtirishdan iborat ijtimoiy hayotga jalb etish jarayoni.

Sinf - yoshi va bilim darajasi bir xil bo'lgan o'quvchilar guruhi tushuniladi.

Ta'lim muassasasining ustavi ta'lim muassasasi faoliyatiga rahbarlik va boshqarish tizimini aniqlovchi hujjatdir.

Ta'lim jarayoni – o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Tafakkur - inson ongidagi mavjud ilmiy va hayotiy bilimlar majmualaridan keragini saralab olish va amaliyotga qo'llash.

Tarbiya — muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Tarbiya jarayoni - o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni.

Tarbiya mazmuni — shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyati.

Tarbiya metodi (yunoncha “*metodos*” - yo'l) tarbiya maqsadiga erishishning yo'li; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullari.

Tarbiya nazariyasi — pedagogikaning muhim tarkibiy qismi; tarbiyaviy jarayon mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o‘rganadi.

Tashxis — bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash

Tekshirish — nazoratning tarkibiy qismi bo‘lib, uning asosiy didaktik vazifasi o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida aks aloqani ta‘minlash, pedagog tomonidan o‘quv materialini o‘zlashtirish haqida obyektiv axborot olinishi hamda bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o‘z vaqtida aniqlashdir.

Tizim (mustaqil tushuncha sifatida) o‘zaro bog‘langan ko‘plab elementlar (tarkibiy qismlar) o‘rtasidagi mustahkam birlik va o‘zaro yaxlitlikdir.

Uzluksiz ta‘lim– malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta‘limning barcha turlarini, davlat ta‘limstandartlarini, kadrlar tayyorlash tizimining tuzilmasi va uning faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi;

Yosh xususiyatlari - muayyan bir yosh davriga xos bo‘lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar.

Yosh xususiyatlari muayyan bir yosh davriga xos bo‘lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlardir

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

7. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.

8. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.

9. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.

10. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.

7. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-sentabr“Oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maksadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3290-sonli Qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabr “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4910-son Qarori.

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi “Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzduksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” 296-son Qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 422-son Qarori.

15. - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarori

III. Maxsus adabiyotlar

16. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. T.: “Hilol-nashr”. 2013 y.

17. A. Haydarov. Inson kamoloti va milliy-ma’naviy qadriyatlar. T.: Muharrir, 2008 y.

18. M. Xajiyeva. Xoja Ahmad Yassaviyning ma'naviy-tarbiyaviy qarashlari. Avtoreferat. T.: 2004 y.
19. M.Shoxadjayev. Burxoniddin Marg'inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlari. Avtoreferat. T.: 2006 y.
20. M.Hamdanova. Ma'naviyat asoslari. T.: "Fan va texnologiya". 2008 y.
21. S.Dolimov, U.Dolimov. Kaykovus unsurulmaoniy qobusnoma T.: "Istiqlol" 1994 y.
22. San'at – yoshlar nigohida. Magistrantlarning ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. T.: 2019 y.
23. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: O'qituvchi. 1992 y.
24. Y.Abdullayev. Eski maktabda xat-savodga o'rgatish. T.: 1960 y. 38-bet
25. Quronov M., Turayev SH va boshq. Milliy tarbiya va yoshlar dunyoqarashini shakllantirish. o'quv qo'llanma, "Muharrir" nashriyoti 2017y. 18b.t
26. Kodirov A ., Quronov M.va boshq.Fazilatli avlod: 7-18yosh gacha bo'lgan bolalarni tarbiyalash bo'yicha qo'llanma. "Muharrir" nashriyoti 2019 y.
33. Olimov Sh.SH.. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. (Monografiya). –T.: «Fan va texnologiya», 2015, 228 bet.

IV. Internet saytlar

34. <http://edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
35. <http://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
36. <http://lib.bimm.uz> –Bosh ilmiy-metodik markazi
37. <http://ziyonet.uz> – Ta'lim portali Ziyonet
38. <http://natlib.uz>–Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi.